

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI  
O'ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI FAKULTETIDA**



**XOTIN-QIZLAR MASLAXAT KENGASHI  
ЖЕНСКИЙ КОНСУЛЬТАТИВНЫЙ СОВЕТ  
WOMEN'S ADVISORY COUNCIL**

**O'ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETIDA TAHSIL OLAYOTGAN 2-  
INGLIZ TILI  
FAKUL`TETINING TALABA-QIZLARI BILAN OLIB BORILAYOTGAN 2021-2022 O`QUV  
YILLARI MA'NAViy-AXLOQIY TARBIYAVIY ISHLARI  
BO'YICHA XOTIN-QIZLAR MASLAXAT KENGASHI BIR YILLIK AMALGA OSHIRGAN  
ISHLARI YUZASIDAN  
HISOBOTI**

**O'ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETIDA TAHSIL OLAYOTGAN 2-INGLIZ TILI  
FAKUL`TETINING TALABA-QIZLARI BILAN OLIB BORILAYOTGAN 2021-2022 O`QUV YILLARI  
MA'NAViy-AXLOQIY TARBIYAVIY ISHLARI  
BO'YICHA XOTIN-QIZLAR MASLAXAT KENGASHI BIR YILLIK AMALGA OSHIRGAN ISHLARI  
YUZASIDAN  
HISOBOTI**

O'zbekiston davlat jahon tillari universitetida 22.09.2021yil tahsil oluvchi talaba qizlar bilan "Xotin-qizlar ijtimoiy faolligini oshirish – mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning muhim omili" mavzusida ma'naviy-ma'rifiy tadbir otkazildi.Tadbirni universitet xotin-qizlar kengashi raisi N.Jurayeva ochib berdi. Ma'rifat targ'ibotchilari jamiyati a'zosi, falsafa fanlari doktori, professor J.T.Shermuhamedova o'z so'zida O'zbekistonda gender tenglik masalalari va ayrim sohalarda ayollarning

huquq va imkoniyatlarini kengaytirish belgilanganligiga to'xtalib o'tdi. O'zbekiston xalq artisti G.Zokirova esa qizlarni mustaqil oilaga tayyorlash, oilaviy ajrimlarga sabab bo'layotgan omillar haqida o'z fikr va maslahatlarini berdi. Tadbirda 2-Ingliz tili fakulteti Xotin-qizlar kengash raisi F.Ashurova ham qatnashdi.









10-oktyabr kuni O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti faollar zalida tilshunos professorlar va talabalar ishtirokida “Ona tili-bu millatning ruhidir” mavzusida tadbir o‘tkazildi. 2-Ingliz tili fakulteti Xotin-qizlar kengash raisi F.Ashurova 1-Oktyabr “Ustoz va murabbiylar” kuni munosabati bilan tashkil etilgan bayram tadbiriga qatnashdi. Davra suhbatida o‘zbek tilining huquqiy maqomi belgilashda yengib o‘tilgan qiyinchiliklardan tortib, hozirgi kunda tilimizning boy imkoniyatlaridan keng foydalanish

uchun yaratilgan shart-sharoitlar hamda davlat tilini yangi pog'onaga olib chiqish borasida qilinayotgan sa'yl-harakatlar alohida e'tirof etildi. Tilimizni e'zozlash, uning davlat tili sifatidagi maqomi, jamiyatdagi mavqeini yuksaltirish, yosh avlodni onatidaga hurmat ruhida tarbiyalash hamisha dolzarb ma'naviy burchimiz bo'lib qolishiga e'tibor qaratildi. Tadbir milliy raqslar va taassurotlarga boy tarzda o'tdi.



O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilarini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan vazifalar ijrosini ta'minlash bo'yicha O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti bir qator ishlarni amalga oshirmoqda. Jumladan, 18-oktyabr kuni 22-sonli Mehribonlik uyida universitet xotin-qizlar kengashi tashabbusi bilan "Maqsadni to'g'ri tanlash- muvaffaqiyat kaliti" mavzusida iqtidorli ijodkor talabalar ishtirokida madaniy-ma'rifiy tadbir tashkil etildi.

Tadbir dasturi milliy va xorijiy tillardagi raqs, qo'shiqlar va tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan sahna ko'rinishi, turli interaktiv o'yinlardan iborat bo'ldi. 2-Ingliz tili fakulteti Xotin-qizlar kengash raisi F.Ashurova ham qatnashdi.







O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti Ingliz tili 2-fakulteti Xotin-qizlar kengashi raisi F.Ashurova hamda Yoshlar masalalari va ma'naviy –ma'rifat ishlari bo'yicha dekan o'rinbosari A.Mallayev 06.10.2021 kuni 2-son TTJ ga talaba qizlarning yashash sharoitlari, TTJ tartib-qoidalariga,tozalikka rioya etishlarini tekshirish maqsasida tashrif buyurdi.Tashrif davomida har bir qavat va xonalarga kirib,talabalarning yashash sharoiti bilan tanishdi,talaba-qizlar bilan alohida tozalik,shaxsiy gigiena va Ozodalik-tuman

boylik mavzularida suhbatlashdi. Shuningdek, ma'naviy-ma'rifiy, ahloqiy-tarbiyaviy masalalarida tushuntirish ishlari olib bordi. Tashrif mobaynida talaba qizlarimiz uchun TTJda ularning dars tayorlashlari, madaniy hordiq chiqarishlari uchun TTJ da ularning dars tayorlashlari, madaniy hordiq chiqarishlari uchun barcha sharoitlar mavjudligini va qavat sardorlari doimo talaba qizlarimiz xonalarini toza va jihozlarni asrab-avaylashlarini nazorat qilishlarini tayinladi.



2- Ingliz tili fakulteti Xotin-qizlar kengash raisi F.Ashurova 4-tashabbus doirasida talaba yoshlar bilan 15.11.2021 kuni fakultet binosida Boshlang'ich ta'limda

ingliz tili kafedrasidan Abdulla Qodiriy ijodiga bag'ishlangan kecha bo'lib o'tdi



Ushbu kechada Abdulla Qodiriy shaxsiyati uning ijodi to'g'risida talabalarga ma'lumotlar berildi. Ayniqsa, uning asarlari asosida sahna ko'rinishlar tadbir ishtirokchilarida chuqur taassurot qoldirdi. Adibning avlodlaridan bo'lmish Mahzuna Qodiriyning tadbirga tashrifi bayramga o'zgacha shukuh berdi. Talabalar ham tadbir davomida o'z fikrlarini va bu inson haqida bilganlarini tengdoshlari bilan o'rtoqlashdilar. Abdulla Qodiriyning ikki buyuk asari: O'tkan kunlar va Mehrobdan chayon qaxramonlari siymosida xalqimiz o'zligini anglab boradi va axloqlanadi.



2021 yil 29-oktyabr kuni O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti faollar zalida IIB xodimlari, Universitet Xotin-qizlar raisi N.Djuraeva va 2-Ingliz tili fakultet kengash raisi F.Ashurova ishtirokida “Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya

qilish” bo‘yicha davra suhbatini tashkil etildi. Ushbu tadbirda Uchtepa tumani Ichki ishlar organlarining faoliyatini muvofiqlashtiruvchi bo‘limi xotin-qizlar masalalari bo‘yicha katta inspektorlar podpolkovnik R.A.Mirzayeva, mayor Sh.A.Abdulkarimova, katta leytenant R.F.Mursalimovalar ishtirok etishdi. Tadbir davomida mutaxassislar talaba qizlarga O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 4-yanvardagi 3-sonli “Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori mazmun mohiyati haqida batafsil ma‘lumot berib o‘tishdi. Shuningdek, tazyiq va zo‘ravonlikka uchragan xotin-qizlarga yordam ko‘rsatish, himoya orderi berish tartibi tushuntirib o‘tildi. Tadbirdan talabalar va barcha qatnashganlar mamnun bolishdi.





O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti 2- Ingliz tili fakulteti Xotin-qizlar kengash raisi F.Ashurova hamda Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha dekan muovini A.Mallayev 12.11.2021 kuni 2-son TTJ ga talaba qizlarning yashash sharoitlari, TTJ tartib-qoidalariga,tozalikka rioya etishlarini tekshirish maqsasida tashrif buyurdi. Tashrif davomida har bir qavat va xonalarga kirib,talabalarning yashash sharoiti bilan tanishdim,talaba-qizlar bilan alohida tozalik,shaxsiy gigiena va Ozodalik-tuman boylik mavzularida suhbatlashdi.Shuningdek,ma'naviy-ma'rifiy,ahloqiy-tarbiyaviy masalalarida tushuntirish ishlari olib bordi. Tashrif mobaynida talaba qizlarimiz uchun TTJda ularning dars tayorlashlari, madaniy hordiq chiqarishlari uchun TTJ da ularning dars tayorlashlari, madaniy hordiq chiqarishlari uchun barcha sharoitlar mavjudligini va qavat sardorlari doimo talaba qizlarimiz xonalarini toza va jihozlarni asrab-avaylashlarini nazorat qilishlarini tayinladi.







Ingliz tili 2-fakultetida “25-noyabr –Xotin-qizlarfa nisbatan zo`ravonlikka barham berish xalqaro kuni” hamda “Zo`ravonlikka qarshi 16 kun” kampaniyasini o`tkazish doirasida “Xotin-qizlarni tazyiq va zo`ravonlikdan himoya qilish tarafdorimiz” mavzusida tadbir o`tkazildi Kun tartibiga kiritilgan mavzular bo`yicha fakultet dekani T.Madrahimov ma`ruza qilib, O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 4-yanvardagi 3-sonli “Xotin-qizlarni tazyiq va zo`ravonlikdan himoya qilish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to`g`risida”gi qarori mazmun mohiyati haqida batafsil ma`lumot berib o`tdi.

Tadbirda so`zga chiqqan IIV huquqbuzarliklar profilaktikasi bosh boshqarmasi boshlig`i o`rinbosari, xotin-qizlar masalalari bo`limi boshlig`i polkovnik U.Abdullayeva o`z so`zida tazyiq va zo`ravonlikka uchragan xotin-qizlarga yordam ko`rsatish, himoya orderi berish tartibini tushuntirib o`tdi.

Tadbir so`ngida, ishtirokchilar o`zlarini qiziqtirgan barcha savollariga javob olishdi.



27-noyabr kuni O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti ingliz tili 2 fakulteti 201- faollar zalida mutaxassislar ishtirokida **“Biz zo‘ravonlikka qarshimiz,O‘zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish** bo‘yicha davra suhbat tashkil etildi. Ushbu tadbir Uchtepa tumani Ichki ishlar organlarining faoliyatini muvofiqlashtiruvchi bo‘limi xotin-qizlar masalalari bo‘yicha katta inspektor podpolkovnik R.A.Mirzayev Markaziy Osiyo taraqqiyoti ilmiy analitik markaz direktori Musayeva Nargiza ishtirok etishdi. 26 noyabr Xotin-qizlarga nisbatan zo‘rovonlikka barxam berish Xalqaro kuni munosabati bilan gender zo‘rovonlik va xotin-qizlar orasida suiqasd xolatlarini oldini olish maqsadida **“Biz zo‘ravonlikka qarshimiz mavzusida** tadbir bo‘lib o‘tdi Tadbir davomida mutaxassislar talaba qizlarga O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 4-yanvardagi 3-sonli “Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan

himoya qilish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori mazmun mohiyati haqida batafsil ma'lumot berib o'tishdi. Shuningdek, tazyiq va zo'rvonlikka uchragan xotin-qizlarga yordam ko'rsatish, himoya orderi berish tartibi tushuntirib o'tildi. Ushbu tadbir ishtirokchilarning xotin-qizlarga nisbatan ko'rsatiladigan tazyiq va zo'rvonlikning har qanday shakl va turlaridan himoyalani sh bo'yicha huquqiy savodxonliklarini oshirishga, yoshlarni oilada va jamiyatda sog'lom ma'naviy muhitni shakllantirish uchun tayyorlashga xizmat qilishi shubhasiz.



O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti 2- Ingliz tili fakulteti Xotin-qizlar kengash raisi F.Ashurova va fakultet tyutorlari bn birgalikda 03.12.2021 kuni 2-son TTJ ga talaba qizlarning yashash sharoitlari, TTJ tartib-qoidalariga,tozalikka rioya etishlarini tekshirish maqsasida tashrif buyurdi. Tashrif davomida har bir talabaning,yashash sharoiti bilan tanishdim,talaba-qizlar bilan alohida tozalik,shaxsiy gigiena haqida suhbat olib bordi.Muammolari,takliflari fikrlari eshitdi kerakli maslahatlarni talabalarga berdi.

TTJda talabalarning bekor vaqtlarini mazmunli tashkil etish uchun 5 ta joyiga oid muhim tashabbus boyicha iqtidorli talabalar bn fikr almashdi. Shuning istak va takliflaridan kelib chiqqan holda til togaragi, kompyuter savodxonligi, pazandachilik, badiiy havaskorlik kabi togaraklar tashkil etish va faol qatnashish kerakligini takidladi.









2021 yil 28 noyabr sanasida Ingliz tili 2 fakulteti Xt 1822-guruh talabasi Charosxon Halimova "Yil talabasi - 2021" Respublika tanlovining universitet bosqichida 'yilning o'z mutaxassisligi bo'yicha eng bilimdon talabasi' yo'nalishida 1-o'rinni egalladi



O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 16-iyundagi PQ-5148 sonli qarori ijrosini ta'minlash hamda universitet professor-o'qituvchilari va xodimlari o'rtasida sportni keng targ'ib qilish va jiamoniy tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshirish maqsadida jismoniy madaniyat kafedrasi tomonidan 2 ingliz tilli fakulteti professor-o'qituvchilar va xodimlardan sport sinovlari qabul qilinmoqda. 11 ta yosh toifasi bo'yicha olinayotgan ushbu sport sinovlarida professor-o'qituvchilar va xodimlar turgan joyida uzunlikka sakrash, yerga tayangan holda qo'llarni bukib yozish, basketbol to'pini 3 metrdan savatga tashlash, 100 metrga yugurish, moksimon yugurish 3x10 metr kabi mashq hamda topshiriqlarni bajarishmoqda. Aytish joizki, professor-o'qituvchilarimiz professional sportchi bo'lmasa-da, berilgan topshiriqlarni a'lo darajada bajarishga, normativlarni yaxshi topshirishga harakat qilishayotgani tahsinga sazovor. Sinovlar qabul qilish 3-dekabrga qadar davom etadi.





2021 yil 6 dekabr sanasida O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetida Konstitutsiyamizning 29 yilligiga bag‘ishlangan “Qonun ustivorligi – xalq farovonligi” shiori ostida ma‘naviy-ma‘rifiy tadbir bo‘lib o‘tdi. Tadbirni O‘zDJTU Yoshlar masalalari va ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar bo‘yicha prorektori Hakimov Hamidullo Inamovich ochib berdi. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Adolat milliy-huquqiy axborot markazi mas‘ul xodimi Salamat Turemuratov Julibayevich, O‘zDJTU kafedra mudiri, O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan jurnalist Toshboyev Olim Shoyimovich, Ayollarni rehabilitatsiya qilish va moslashtirish Respublika markazi direktori, yuridik fanlar doktori, professor Matkarimova Gulchehra Abdusamatovna va O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Adolat milliy-huquqiy axborot markazi mas‘ul xodimi G‘oyibnazarov Shakarboy Ibrohimovichlar talabalarni bayram bilan qutlab, ularning huquqiy savodxonligini oshirish to‘g‘risida tayyorlab kelgan ma‘ruzalari bilan o‘rtoqlashishdi. Dastur davomida bayram munosabati bilan talabalar va o‘qituvchilar o‘rtasida sport turlari bo‘yicha o‘tkazilgan musobaqada g‘olib bo‘lgan jamoalar qimmatbaho esdalik sovg‘alari bilan taqdirlandilar.







O'zbekiston davlat jahon tillari universitetida 10.01.2022y.kuni "Ayollarni turli tazyiq va zo'rvonlikdan himoya qilish va ular o'rtasida jinoyatchilik hamda xuquqbuzarliklarning oldini olish" mavzusida o'tkazilgan tadbirda 2- Ingliz tili fakulteti Xotin-qizlar kengash raisi F.Ashurova qatnashdi. Tadbirni Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha prorektor H.Hakimov kirish so'zi bilan ochib berdi va tadbir tashabbuskori bo'lgan Uchtepa tuman Ichki ishlar boshqarmasiga hamkorlik uchun

minnatdorchilik bildirdi. Tadbir ahamiyati haqida o'zining ijobiy fikr-mulohazalarini bildirdi. Shu nuqtai nazardan bugungi tashkil etilayotgan "Ayollar o'rtasida jinoyatchilik va xuquqbuzarliklarning oldini olish hamda zo'rvonlikdan jabrlanganlarning xuquqlarini himoya qilish va zo'rvonlikning oldini olish" mavzusidagi profilaktik tadbir ham o'z ahamiyatiga ega, deb tadbirning tarbiyaviy ahamiyatini ijobiy baholadi. SHundan so'ng, Uchtepa tumani bosh psixologi K.Abdullayeva ishtirokida psixologik trening tashkil etildi. Uchtepa tumani 3-sonli IIB XPB xotin-qizlar masalalari bo'yicha katta inspektori, leytenant G.Xodjayeving "O'zbekiston Respublikasining "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi O'RQ-562-sonli va "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'rvonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi O'RQ-561-sonli qonunlari mazmun-mohiyati to'g'risida" va himoya orderi yuzasidan ma'ruza qilib, mavzuga oid videoroliklar xotin-qizlar uchun berilayotgan himoya orderlari, shuningdek, zo'rvonlikdan jabrlanganlarning xuquqlarini himoya qilish va zo'rvonlikning oldini olish borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar haqida keng qamrovli ma'lumotlar berdi. Shuningdek, ayyollarning tazyiq va zo'rvonlikka uzragan holatda murojaat qilinishi mumkin bolgan "Ishonch telefoni" targ'ib qilindi.







16 fevral 2022 yil O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti xotin-qizlar maslaxat kengashi raislari tomonidan talabachilarning o‘rtasida ota-onaga hurmat, oila muqaddasligi, hayotning qadriga yetish kabi masalalarni qamrab olgan “Oila-muqaddas dargoh” mavzuida ma’naviy-ma’rifiy tadbir o‘tkazildi.



Davra suhbatida “Ma’rifat” targ’ibotchilar jamiyati a’zosi Falsafa fanlari doktori, professor Jamila Shermuhammedova ishtirok etdi. Bizdagi oilaga bo’lgan mehr-muhabbat, fidoyilik, oilaning muqaddasligini his qilish, farzand tarbiyasiga bo’lgan munosabat, oilalardagi totuvlik, sabr-toqat, qanoatlilik, insof-diyonat kabi ijobiy fazilatlar haqida ma’ruza qilindi.







Joriy yilning **16-fevral** kuni Uchtepa tumani deputati J.Ismanov, Nuroniy jamoatchilik kengashi raisi G'Shomurodov, Uchtepa tumani xotin-qizlar masalalari bo'yicha rais o'rinbosari M.Aripova, Jurjoniyl maxallasi xotin-qizlar masalalari bo'yicha maxilla rais o'rinbosari S.Nurmuxammedova bilan uchrashuv tashkil qilindi. Ingliz tili 2 fakultet Ingliz tilini o'qitish metodikasi №2 kafedrasiga birlashtirilgan Jurjoniyl mahallasida kafedra mudiri va o'qituvchilari, mahalla raisi va ingliz tilini o'rganish istagidagi o'quvchilar ishtirokida ingliz tili to'garagini tashkil qilish bo'yicha yig'ilish o'tkazildi.

To'garak mahalla fuqarolar yig'ini binosida tashkil qilinishi, mahalla raisi hamda tashkilotchilar tomonidan qiziqish bildirgan yosh o'rganuvchilar yig'ilib, dars xonasi, kerakli jihozlar bilan jihozlanishi muhokama qilindi.

Quyida o'qituvchi Abduraimova Mehriniso tomonidan tashrif buyurgan maktab o'quvchilari bilan tanishuv va ilk sinov darsi o'tkazildi. Dars bolalarning ota-onalari tomonidan ham kuzatildi. Ijobiy taassurot olgan kuzatuvchilar o'quvchilar sonini va to'garak darslari kunlarini ko'paytirish taklifini berishdi.

Quyida ushbu jarayonlardan lavhalar keltirilgan:







O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

2021-2022- o'quv yili uchun- ingliz tili 2-fakulteti maktabgacha va boshlang'ich ta'limda xorijiy til yo'nalishi (ingliz tili) 3-bosqich MT1903-guruh talabasi Umirova Dilshoda Husniddin qizi Alisher Navoiy nomidagi Davlat stipendiyasi sohibasi

Yutuqlari: "MA'RIFAT MAYDONI" Respublika tanlovida 3-o'rin sohibasi, 20dan ortiq ilmiy maqolalar muallifi, ko'plab forum va konferensiyalar ishtirokchisi. Respublika yosh olimlar kengashi a'zosi, Oltin qanot volontyori

Ilmiy rahbar : Nilufar Muhammedova Filologiya fanlari doktori.



Joriy yilning 1 mart sanasida Ingliz tili 2-fakultetida xotin-qizlar masalalari bo'yicha dekan maslahatchisi F.Ashurova bilan hamkorlikda milliy qadriyatlar targ'ibotiga bag'ishlangan "Balli, qizlar!" ko'rik-tanlovining fakultet bosqichi tashkil etildi. Ushbu tanlovda talaba-qizlar 5 ta shart bo'yicha bellashishdi.

Unda jami 12 ta talaba qizlar o'zlari yozgan she'rlar, Zulfiyaxonim ijodidan parchalar hamda sahna ko'rinishlari bilan qatnashishdi. Shuningdek, qizlarning chaqqonligini va ingliz tilini bilish ko'nikmalarini sinash maqsadida "Spelling bee" topshirig'i ham qo'shildi. Talaba qizlarning har bir shartdagi ishtiroklari 2 fakulteti ingliz tilini o'qitish metodikadi o'qituvchilari Nabiyeva Z., Kurbanbayeva D., Abduraimova M. lar tomonidan baholandi va g'olib talaba aniqlandi.

Ko'rik - tanlov natijasiga ko'cha XT2-2103 guruh talabasi Shahribonu Oqmatova g'oliblikni qo'lga kiritib, universitet bosqichida qatnashish uchun yo'llanma oldi.









6 mart 2022yil Ingliz tili ikkinchi fakulteti xotin-qizlar masalalari bo'yicha dekan maslahatchisi F.Ashurova bilan hamkorlikda fakultrt tyutorlari va o'qituvchilari tomonidan talabalarning ko'hna va navqiron Samarqand shahriga tashrifi amalga oshirildi. Talabalar Samarqand shahridagi tarixiy obidalar va muqaddas qadamjolarga tashrif buyurib, tariximiz va ajdodlarimiz haqida batafsil ma'lumotga ega bo'ldilar.





O'zbekiston jahon tillari universitetida Xotin-qizlar kengash raislari va fakultet tyutorlari bn birgalikda 04.03.2022 kuni O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi doktorantlari tomonidan “Yoshlar tarbiyasining nozik jihatlari hamda professor-o‘qituvchilar, ishchi-xodimlar va talaba-yoshlarning huquqiy ongi va madaniyatini oshirish, ularni turli jinoiy harakatlardan asrash hamda turli huquqbuzarliklar” mavzusida fakul'tet xotin-qizlar masalalari bo'yicha dekan maslahatchilari hamda tyutorlar ishtirokida psixologik-trening o'tkazildi





Joriy yilning 5-mart sanasida O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetida Xalqaro xotin- qizlar bayrami munosabati bilan katta tadbir tashkil qilindi. Tadbirni universitet rektori o‘zining bayram tabrigi bilan ochib berdi va o‘z nutqida ayollarni e‘zozlash va ularga ehtirom ko‘rsatish sharqona qadriyat ekanligini aytib o‘tdi. Tadbir davomida musiqiy kompozitsiyalar, teatrlashtirilgan sahna asarlari, turli xil raqslar, jonli ijrodagi qo‘shiqlar, ko‘ngilochar dasturlar, QVZ jamoasining chiqishlari namoyish etildi. Bayram dasturi ko‘tarinki ruhda, yuqori kayfiyatda , taassurotlarga boy o‘tdi va barcha tashrif buyuruvchilarga manzur bo‘ldi.





O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetida 8-mart Xalqaro xotin-qizlar kuni munosabati bilan "Sen baribir muqaddassan, muqaddas ayol!" nomli bayram tadbiri tashkil etildi. Bayram tadbiri avvalida universitet rektori U.Aziziov barcha ayollar va talabalarni bayram bilan tabriklab, talaba qizlarimiz hamda professor-o‘qituvchilarimiz tomonidan so‘nggi yillarda erishilayotgan yutuqlarni alohida e‘tirof etib o‘tdi. Universitetdagi faoliyati davomida o‘z fidoiyligi bilan boshqlarga o‘rnak bo‘lib kelayotgan bir qator dekan maslahatchilari, o‘qituvchilar hamda tyutorlar faxriy yorliqlar bilan taqdirlandi. Shundan so‘ng, estrada xonanalari, iqtidorli talabalar hamda "Marvarid" bolalar raqs ansambli tomonidan tayyorlangan bayram tadbiri tomoshabinlar hukmiga havola etildi.





2022-yil 11-mart kuni Ingliz tili 2-fakultetida fakultet xotin-qizlar maslahat kengashi raisi Feruza Ashurova tashabbusi bilan Ingliz tilini o`qitish metodikasi №2 kafedrasida professor-o`qituvchilari hamkorligida "Ilm-muvaffaqiyat kaliti" shiori ostida motivatsion, psixologik uchrashuv bo`lib o`tdi. Tadbirda Ingliz tili 2-fakulteti talabasi Sojida Karimova IELTS imtihonidan umumiy 8.0 ballni qo`lga kiritgani va Erasmus+ grantini yutgani haqida gapirib, bu yutuqlarga erishish yo`lida talabalarga tegishli maslahatlar berdi. Tadbirda ishtirok etgan talabalar tadbir tashkilotchilariga o`z minnatdorchiliklarini bildirishdi.





"Meni hech kim eshitishni istamaydi".Joriy yilning 16-mart sanasida fakultet xotin-qizlar maslahat kengashi raislari rahbarligida yuqoridagi nom ostida Psixologik seminar-trening tashkil etildi.Tadbirda filolog, psixolog, orator, An-Nafis consulting asoschisi va rahbari Nafisa Olg'irova ishtirok etdi hamda talabalarni qiziqtirgan savollariga javob berdi.





18 mart O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetida bahor bayrami bo‘lmish Navro‘z keng nishonlandi. Universitetning barcha fakultetlari joylarda bayramni birgalikda, ko‘tarinki kayfiyatda nishonlash uchun minglab talabalar, universitet professor o‘qituvchilari hamda tyutorlar tomonidan tayyorlangan mazali sumalak, bahor taomlari, mehmonlarning dilini yayratgan quvnoq kuy-qo‘shiqlar, raqslar Navro‘z bayrami yanada quvonchli o‘tishiga o‘z hissasini qo‘shdi.

O‘zDJTU rektori Ulug‘bek Azizov boshchiligida universitet rahbaryati ingliz tili 2 fakultetga tashrif buyurdilar. Ulug‘bek Azizov barchani Navro‘zi olam bilan tabriklab nutq so‘zladi. Tabrik songida sportning bir necha turlari kurash, shaxmat va shashka, stol tennisi (yakka va juftlik bahslari), voleybol (o‘g‘il bolalar va qizlar jamoalari o‘rtasida) hamda futbol bo‘yicha o‘tkazilgan Rektor kubogi musobaqalari g‘olib va sovrinli o‘rinlarni qo‘lga kiritgan jamoalar universitet rahbaryati tomonidan qimmatbaho sovg‘alar bilan taqdirlandi.











Navro'z — yashnash, yasharish bayrami, tabiatning uyg'onishi, yangi kunning boshlanishi!

Ushbu kun yangicha mazmun-mohiyat kasb etib, milliy qadriyat va xususiyatlarimizdan kelib chiqqan holda umumxalq bayrami sifatida keng nishonlanib kelinadi. Bayram munosabati bilan faxriy uztozlarimizni eslash, ular qoldirgan ezgu ishlarni davom ettirish va yoshlar uchun ibrat qilib ko'rsatish, tarixiy yutuqlardan faxrlanib, ularga munosib avlod bo'lib yetishish ezgu ishlardandir. Joriy yilning 18-19 mart Ingliz tili 2 fakultet xotin qizlar masalalari bo'yicha drkan maslaxatchisi va ikgliz tilini o'qitish metodikasi t kafedrası professor o'qituvchilari universitetda faoliyat ko'rsatib kelgan faxriy uztozlarimizni holidan xabar

olish maqsadida D.Abduraxmanova uylariga tashrif buyurishdi. Ustozlar o'qituvchilarning tashrifidan mamnun bo'lib, hayotida ro'y bergan qiziqarli voqealardan, shu bilan birga, o'zlarining ilmiy-hayotiy faoliyatlari va tajribalari borasidagi yutuqlari haqida dildan suhbatlashishdi. O'qituvchilar ustoz xonadonidan qaytarkan bugungi qilgan xayrli ishlaridan mamnun bo'lishdi.



Joriy yilning 19-20-mart Ingliz tili 2-fakulteti xotin-qizlar masalalari bo'yicha dekan maslaxatchisi F.Ashurova va Tyutorlari Axundjanov Muzaffar va Ahmedov Bobur bahor fasli kirib kelganligi munosabati bilan "Buxoroi Sharif"ga qiziqarli sayohatni tashkillashtirishdi.Ekskursiyadan ko'zlangan asosiy maqsad talabalar bo'sh vaqtini mazmunli tashkil qilish, tarixiy joylarga bo'lgan qadriyat, turizmni rivojlantirish hamda universitet talabalari ongida unitilmas tarixni yaratish.Ekskursiya davomida quyida ko'rsatilgan tarixiy joylarga tashrif buyurildi.

- ☪ Ark majmuasi
- ☪ Mir Arab madrasasi
- ☪ Minorai Kalon majmuasi(1127)
- ☪ Labi Hovuz majmuasi (XVII asr)
- ☪ Bahouddin Naqshband majmuasi (XIV asr)
- ☪ Chorminor (XIX asr)
- ☪ Ulug'bek madrasasi.







Mamlakatimizning qadimiy va boy tarixini o'rganish, yoshlar orasida keng targ'i'b etish, ularda milliy g'urur va iftixor tuyg'usini mustahkamlash, shuningdek, ichki turizmni rivojlantirish maqsadida joriy yilning 27-mart sanasida Ingliz tili 2-fakulteti xotin-

qizlar masalalari bo'yicha dekan maslaxatchisi F.Ashurova hamda fakultet tyutorlari tashabbusi bilan qadimiy va navqiron Samarqand shahriga qiziqarli sayohat tashkillashtirishdi.

Ekskursiya davomida quyida ko'rsatilgan tarixiy joylarga tashrif buyurildi.

- ☪ Go'ri Amir maqbarasi
- ☪ Registon majmuasi
- ☪ Bibixonim maqbarasi
- ☪ I.Karimov qabri ziyorati
- ☪ Shohizinda maqbarasi
- ☪ Xo'jadoniyor ziyoratgohi





31 mart sanasida O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetida bakalavriat va magistratura talabalari uchun “Mehnat yarmarkasi” tadbiri bo‘lib o‘tmoqda. “Mehnat yarmarkasi”da O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti bakalavriat va magistratura talabalarining ishlash istagini bildirgan 2500 dan ziyod xorijiy til va adabiyoti: ingliz tili, filologiya va tillarni o‘qitish: ingliz, nemis, frantsuz, ispan, xitoy, yapon, koreys, rus tili, rus tili va adabiyoti o‘zga tilli guruhlarda, tarjima nazariyasi va amaliyoti (tillar bo‘yicha), maktabgacha va boshlang‘ich ta‘limda xorijiy til: ingliz tili ta‘lim yo‘nalishlari, magistratura mutaxassisliklari bo‘yicha talabalar bandligini ta‘minlash ko‘zda tutilgan. Bundan tashqari, mazkur tadbirdan yana bir ko‘zlangan maqsad - universitet bitiruvchilarining bandligini ta‘minlash, ularning kelgusidagi ish joylarini tanlashlariga ko‘maklashish, bo‘lajak kadrlarni ish beruvchilar bilan tanishtirish, tegishli shartnomalarni rasmiylashtirish, tadbirkorlikka jalb etish hisoblanadi. “Mehnat yarmarkasi” tadbirida potensial ish beruvchilar (iste‘molchilar), universitet Taqsimot komissiyasi, “Yoshlar ittifoqi” BT, Ommaviy axborot

vositalari vakillari, ishlash istagini bildirgan universitet talabalari va bitiruvchilari hamda ustoz-murabbiylar ishtirok etishmoqda. “Mehnat yarmarkasi” tadbirida O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi, Toshkent shahar hokimligi, Uchtepa tumani prokuraturasi, Uchtepa tumani hokimligi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’limi, Xalq ta’limi, Madaniyat, Bandlik va mehnat munosabatlari, Ichki ishlar, Turizm va madaniy meros, Maktabgacha ta’lim vazirliklari, O‘zbekiston milliy axborot agentligi, Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi, Yozuvchilar uyushmasi, nodavlat ta’lim muassasalari hamda boshqa tashkilotlar bo‘sh ish o‘rinlari bo‘yicha o‘z takliflari bilan ishtirok etishmoqda.





2 aprel sanasida O‘zDJTU Xotin-qizlar masalalari bo‘yicha rektor va dekan maslahatchilari 4-5-6 sonli talabalar turar joylariga tashrif buyurdi .Mas‘ullar 4 soat davomida TTJda istiqomat qilayotgan qizlar bilan o‘zaro muomala, kiyinish madaniyati, shuningdek, orastalik va saromjonlikka rioya etish kabi masalalar yuzasidan suhbatlashdi.Tashrif mobaynida yotoqxonadagi muammolar o'rganilib, bu bo'yicha bir qancha takiflar kiritildi.







5 aprel O'zbekiston davlat jahon tillari universitetida "Salomatlik uchun 5000 qadam" aksiyasi bo'lib o'tmoqda. Ingliz tili 2 fakultet dekan o'rinbosarlari hamda xotin-qizlar masalalari bo'yicha dekan maslahatchisi F. Ashurova hamda ingliz tilini o'qitish metodikasi o'qituvchisi M. Abduraimova va fakultet tutirlari bu aksiyada faol ishtirok etishdi.









8 aprel sanasida O'zbekiston davlat jahon tillari universitetida "Balli, qizlar!" ko'rik-tanlovining universitet bosqichi o'tkazildi. Tadbirni universitet rektori U.Azizov kirish so'zi bilan ochib berdi. Tanlovda fevral-mart oylarida o'tkazilgan 9 nafar fakultet bosqichlari g'olibalari, fakultet malikalari quyidagi 4 ta shart bo'yicha bellashishdi:

1. Salomlashish va tanishtiruv
2. Tarixda nom qoldirgan va bugungi lider ayollar haqida ma'lumot berish
3. "Buvim kiygan liboslar" mavzusida taqdimot
- 4 Erkin mavzu shular jumlasidandir.

Tanlovda qizlar o'zlarining bilim-salohiyat va iqtidorini har tomonlama namoyon etdilar. Bu esa albatta qizlarimizning ma'naviyatini yanada yuksalishida muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki qizlar tarbiyasi jamiyat tarbiyasi hisoblanadi. Tanlovda qizlar ishtiroki hakamlar hay'ati tomonidan "Eng iqtidorli", "Chiroyli nutq sohibasi", "Milliy libos targ'ibotchisi", "Ma'naviyat targ'ibotchisi", "Eng zukko" kabi nominasiyalar bilan baholandi. Jumladan, ingliz tili 2-fakulteti talabasi Shahribonu Oqmamatova universitet malikasi nominasiyasiga sazovor bo'ldi. Barcha balli qizlarga universitet tomonidan sertifikatlar va esdalik uchun sovg'alar taqdim etildi.







13 aprel sanasida O'zbekiston davlat jahon tillari universitet xotin-qizlar maslahat kengashi tashabbusi bilan O'zbekiston Xotin-qizlar "Olima" uyushmasi, tadqiqot.uz Xalqaro ilmiy jurnallar portali hamkorligida "O'zbekiston xotin-qizlarining ilm-fan taraqqiyotiga qo'shayotgan hissasi" mavzusida online xalqaro ilmiy-amaliy konferentsiya o'tkazildi. Konferentsiyada O'zbekiston Xotin-qizlar "Olima" uyushmasi raisi, tarix fanlari doktori, professor R.H.Murtazaeva, Janubiy Koreyaning Seul shahridagi Sookmyung ayollar universiteti siyosiy fanlar va xalqaro munosabatlar bo'yicha falsafa doktori D.Shavqiddinova, O'zDJTU "Olima" uyushmasi raisi, tarix fanlari doktori, professor D.B.Bobojonova, TDTU O'zbekiston tarixi kafedrasini mudiri, tarix fanlari doktori, professor, R.E. Xoliqova, TIQXMMI Gumanitar fanlar kafedrasini mudiri, tarix fanlari doktori, professor Sh.M.O'ljaeva, Kanadadagi British Columbiya universiteti tadqiqotchisi Dilsora Komil, O'zbekiston Milliy universiteti tarix fanlari nomzodi, dotsent, S.A. Zohidova kabi olimalar ayollar ma'ruza qilib, Yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlarda ayollar ijtimoiy faolligini oshirish, ilm-fan taraqqiyoti, fan-texnika va innovatsiyalar samaradorligini ta'minlashga olimalar ayollarning qo'shayotgan hissasi, xotin-qizlar huquq va manfaatlarining himoya qilinishi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi ekanligi, ayol ma'rifatining yoshlar ma'naviyatini yuksaltirishdagi ahamiyati borasida o'z fikr-mulohazalarini bildirdilar.



Talabalarda milliy va umuminsoniy qadriyatlar va milliy qonunchiligimizga hurmat, Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash, shuningdek, talabalarning harbiy sohaga qiziqishlarini yanada oshirish maqsadida fakultet tyutori R.Uzoqova tashabbusi bilan joriy yilning 22 aprel sanasida Ingliz tili 2-fakultetida “Ikki avlod uchrashuvi” tadbiri bo'lib o'tdi. Uchrashuvda kino va teatr aktyori,

O'zbekiston xizmat ko'rsatgan artist, Ichki ishlar vazirligi huzuridagi madaniyat markazi badiiy rahbari Uchqun Tillayev ishtirok etdi. Uchrashuvda mutahassislar tomonidan IIV tizimda amalga oshirilayotgan islohotlar, yangiliklar haqida talabalarga to'liq ma'lumotlar berildi.







O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 30 apreldagi 14-14/1-1217-son bayoni 1-ilovasiga muvofiq, 15-may-Xalqaro oila kuni munosabati bilan "Farovon oila sari" g`oyasini targ`ib qiluvchi chora-tadbirlar dasturida belgilab berilgan vazifalar ijrosini tas`minlash yuzasidan tyutor M.Yuldosheva hamda bir guruh talabalar fakultet xotin qizlar maslahat kengashi raisi F.Ashurova bilan hamkorlikda Toshkent shahar Uchtepa tumani "Jurjoniy" mahallasi 5-tor Zamaxshariy ko`chasi 22-uyda istiqomat qiluvchi "Jurjoniy" mahallasi sobiq mahalla raisi Saidov Baxtinur Hamdamovich xonadonlariga tashrif amalga oshirildi. Xonadon mahalladagi eng na`munali oila sifatida e`tirof etiladi. Tashrif davomida oila a`zolari bilan dildan suhbat bo`lib o`tdi. Hozir kunda Saidov Baxtinur Hamdamovichning farzandi oila boshlig`i Saidov A`lonur Baxtinurovich Respublika qon quyish instituti direktori lavozimida faoliyat olib bormoqdalar. Ayollari Saidova Ma`mura Ergashovna Uchtepa tumani tibbiyot sohasi vakili hisoblanadi. Suhbat davomida oila bosh`ligi avvalambor, oila hayotning abadiyligini, avlodlarning davomiyligini ta`minlaydigan, muqaddas nasllar qanday inson bo`lib yetishishiga bevosita ta`sir ko`rsatadigan tarbiya o`chog`i ekanligini ta`kidlab o`tdi hamda talabalarga kerakli maslahatlarini berib o`tdi.





9 may–“Xotira va qadrlash kuni” oldidan Ingliz tili 2-fakulteti jamoasi ezgu ishlarga qo‘l urmoqda, hududlarda urush qatnashchilari, yolg‘iz qariyalar hamda keksalar holidan xabar olish maqsadida ularni yo‘qlab bormoqdalar. Darhaqiqat, qariyalarning holidan xabar olish, ularga moddiy va ma‘naviy yordam ko‘rsatish xalqimizning azaliy qadriyatlaridan biri sanalib,

ular hamisha e'zozlanib kelinadi. Ingliz tili 2-fakulteti tyutorlari B.Axmedov, M.Xamrayeva, ingliz tili 2 fakultet xotin kizlar masalalari buyicha dekan maslaxatchisi F.Ashurova, fakultet dekan muovini A.Mallayev hamda faol talabalar Uchtepa tumani Jurjoniy MFY, Zamaxshariy 5-tor ko'chasi 24-uyda istiqomat qiluvchi Saida ona Abdullayeva (sobiq o'qituvchi)larning honadoniga tashrif buyurishib, ularning holidan xabar oldilar.Xamda ingliz tili ukitish metodikasi 2 kafedrası professor ukituvchilari bilan faxriylar uylariga tashrif kilindi







9 may Ingliz tili2 fakultet xotin qizlar masalalari bo"yicha drkan maslaxatchisi va ikgliz tilini o'qitish metodikasi kafedrası professor o'qituvchilari universitetda faoliyat ko'rsatib kelgan faxriy uztozlarimizni holidan xabar olish maqsadida S.Tohirjonova uylariga tashrif buyurishdi. Ustozlar o'qituvchilarning tashrifidan mamnun bo'lib, hayotida ro'y bergan qiziqarli voqealardan, shu bilan birga, o'zlarining ilmiy-hayotiy faoliyatlari va tajribalari borasidagi yutuqlari haqida dildan suhbatlashishdi.O'qituvchilar ustoz xonadonidan qaytarkan bugungi qilgan xayrli ishlaridan mamnun bo'lishdi.



18 may 2 ingliz tili fakulteti Xotin qizlar maslaxat kengashi raisi F.Ashurova va tyutor Raxmonova Baxora xamda ingliz tilini o'qitish metodikasi kafedrasida katta o'qituvchisi Xakimova M. va Uchtepa tumani FXDE bulimi inspektor Urinboyeva Madinabonu bilan Oila xaqiqiy baxt va xalovat kurgonidir deb nomlangan tadbir bulib utdi.Ushbu tadbirda mexmonimiz nutq so'zladilar so'ng talabalar mavzu bo'yicha o'z fikrlarini bildirib ,baxs munozara tarzda davom etirdilar. Talabalar o'z savollariga javob oldilar.







17 may sanasida Ingliz tili 2 fakultetida universitet Taqsimot komissiyasi bitiruvchilarni ishga taqsimlash jarayonini amalga oshirdi. Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil iyundagi PQ-92-son „2005-2006-o‘quv yilida O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim muassasalariga qabul to‘g‘risida”gi qarorning 6-bandi „Kadrlarni davlat granti asosida maqsadli tayyorlash tartibi to‘g‘risida” gi Nizomga muvofiq universitet komissiyasi barcha ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha davlat grantlari asosida tahsil olgan universitet bakalavr va magistr bitiruvchilarini kamida uch yil ishlab berish sharti bilan ta’lim muassasalari, korxonalar va tashkilotlarga ishga taqsimlash jarayonini tashkillashtirmoqda. Ma'lumot o‘rnida, Universitet Taqsimot komissiyasi ishga yuborilayotgan har bir bitiruvchiga quyidagi hujjatlarni taqdim etmoqda

- ishga yuborilganlik to‘g‘risidagi yo‘llanma
- Taqsimot komissiyasi qaroridan va taqsimot ro‘yhatidan ko‘chirma.








18 may sanasida yil davomida ma'naviy, ma'rifiy, ilmiy va tashkiliy sohalarda va fakultet hayotida eng faol tarzda o'zini ko'rsata olgan iqtidorli talaba-yoshlarni rag'batlantirish maqsadida ma'naviy-ma'rifiy tadbir tashkil etildi. Bu tadbirni olib borishga "Ma'rifat" targ'ibotchilar jamiyati a'zolari Dadajonovlar oilasi, yani Ravshanbek hamda Musallam Dadajonovlarga topshirildi.

Badiy kechada Ingliz tili 2 fakultet 4 kurs talabalari va ingliz tilini o'qitish 2 kafedra professor-o'qituvchilari faol ishtirok etisdi. Dadajonovlar oilasi "Mustahkam oila-yurt tayanchi" mavzusida o'z fikr muloxazalarini bildirishdi. Tadbir yuqori saviyada tashkillashtirildi va talabalarda katta ta'surot uyg'otdi.





**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI  
O'ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI FAKULTETIDA**



**O'ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI  
UNIVERSITETIDA TAHSIL OLAYOTGAN 3-  
INGLIZ TILI  
FAKUL`TETINING TALABA-QIZLARI BILAN OLIB BORILAYOTGAN 2021-2022 O`QUV  
YILLARI MA`NAVYIY-AXLOQIY TARBIYAVIY ISHLARI  
BO`YICHA XOTIN-QIZLAR MASLAXAT KENGASHI YARIM YILLIK AMALGA OSHIRGAN  
ISHLARI YUZASIDAN  
HISOBOTI**



O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetida 22.09.2021yil tahsil oluvchi talaba qizlar bilan “Xotin-qizlar ijtimoiy faolligini oshirish – mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning muhim omili” mavzusida ma’naviy-ma’rifiy tadbir otkazildi.Tadbirni universitet xotin-qizlar kengashi raisi N.Jurayeva ochib berdi. Ma’rifat targ’ibotchilari jamiyati a’zosi, falsafa



fanlari doktori, professor J.T.Shermuhamedova o‘z so‘zida O‘zbekistonda gender tenglik masalalari va ayrim sohalarda ayollarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish belgilanganligiga to‘xtalib o‘tdi. O‘zbekiston xalq artisti G.Zokirova esa qizlarni mustaqil oilaga tayyorlash, oilaviy ajrimlarga sabab bo‘layotgan omillar haqida o‘z fikr va maslahatlarini berdi.Tadbirda 3-Ingliz tili fakulteti Xotin-qizlar kengash raisi X.Nishanova ham qatnashdi.

10-oktyabr kuni O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti faollar zalida tilshunos proffesorlar va talabalar ishtirokida “Ona tili- bu millatning ruhidir” mavzusida tadbir o‘tkazildi. 3-Ingliz tili fakulteti Xotin-qizlar kengash raisi X.Nishanova 1-Oktyabr “Ustoz va murabbiylar” kuni munosabati bilan tashkil etilgan bayram tadbiriga qatnashdi. Davra suhbatida o‘zbek tilining huquqiy maqomi belgilashda yengib o‘tilgan qiyinchiliklardan tortib, hozirgi kunda tilimizning boy imkoniyatlaridan keng foydalanish uchun yaratilgan shart-sharoitlar hamda davlat tilini yangi pog'onaga olib chiqish borasida qilinayotgan sa'yl-harakatlar alohida e'tirof etildi.Tilimizni e'zozlash,uning davlat tili sifatidagi maqomi,jamiyatdagi mavqeini yuksaltirish,yosh avlodni onatilidaga hurmat ruhida tarbiyalash hamisha dolzarb ma'naviy burchimiz bo'lib qolishiga e'tibor qaratildi.Tadbir milliy raqslar va taassurotlarga boy tarzda o'tdi.





O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilarini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan vazifalar ijrosini ta‘minlash bo‘yicha O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti bir qator ishlarni amalga oshirmoqda. Jumladan, 18-oktyabr kuni 22-sonli Mehribonlik uyida universitet xotin-qizlar kengashi tashabbusi bilan "Maqsadni to'g'ri tanlash- muvaffaqiyat kaliti" mavzusida iqtidorli ijodkor talabalar ishtirokida madaniy-ma'rifiy tadbir tashkil etildi. Tadbir dasturi milliy va xorijiy tillardagi raqs, qo'shiqlar va tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan sahna ko'rinishi, turli interaktiv o'yinlardan iborat bo'ldi. 3-Ingliz tili fakulteti Xotin-qizlar kengash raisi X.Nishanova ham qatnashdi.





O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti Ingliz tili 3-fakulteti Xotin-qizlar kengashi raisi X.Nishanova 04.10.2021 kuni 5-son TTJ ga talaba qizlarning yashash sharoitlari, TTJ tartib-qoidalariga, tozalikka rioya etishlarini tekshirish maqsasida tashrif buyurdi. Tashrif davomida har bir qavat va xonalarga kirib, talabalarning yashash sharoiti bilan tanishdi, talaba-qizlar bilan alohida tozalik, shaxsiy gigiena va Ozodalik-tuman boylik mavzularida suhbatlashdi. Shuningdek, ma'naviy-ma'rifiy, ahloqiy-tarbiyaviy masalalarida tushuntirish ishlari olib bordi. Tashrif mobaynida talaba qizlarimiz uchun TTJda ularning dars tayorlashlari, madaniy hordiq chiqarishlari uchun TTJ da ularning dars tayorlashlari, madaniy hordiq chiqarishlari uchun barcha sharoitlar mavjudligini va qavat sardorlari doimo talaba qizlarimiz xonalarini toza va jihozlarni asrab-avaylashlarini nazorat qilishlarini tayinladi.



**IV. ХОТИН-ҚИЗЛАР ЎРТАСИДА ЎТКАЗИЛАДИГАН МАЪНАВИЙ-МАЪРИФИЙ,  
ТАРБИЯВИЙ ИШЛАРНИ ТАШКИЛ ЭТИШ ВА ОАВ ЁРИТИШ**

2021 йил 22 апрель куни талабалар турар жойларидаги “Кафедра кунлари” доирасида “Талабалар яшаш шароитидан хабар олиш” мавзусида давра суҳбати ўтказилди. Талабалар билан маънавий камол нақадар муҳим эканлиги ҳақида суҳбатлашилди. Шу билан бирга талабалар яшаш шарт шароитлари билан танишилди. Ётоқхона мудирининг билан суҳбат олиб борилди ҳамда талабаларимиз яшаш шароитлари ҳақида сўраб суриштирилди.

Талабалар ҳолидан хабар олиш



"Рус филологияси факултети 1-сонли ТТЖ

12 феврал куни талабалар турар жойларидаги “Кафедра кунлари” доирасида “Талабалар яшаш шароитидан хабар олиш” мавзусида давра суҳбати ўтказилди. Талабалар билан маънавий камол нақадар муҳим эканлиги ҳақида суҳбатлашилди. Ётоқхона мудирининг билан суҳбат олиб борилди ҳамда талабаларимиз яшаш шароитлари ҳақида сўраб суриштирилди Рус филологияси факултети хотин

<p>яшовчи талаба қизлардан хабар олинди"</p>	<p>қизлар раиси Нишонова Г. бошчилигида 1 сонли талабалар тузар жойида яшувчи талаба қизлар холидан хабар олинди.</p> 
<p>21-Март Наврўз байрами муносабати билан “РУС ФИЛОЛОГИЯ МАЛИКАСИ” кўрик танлови</p>	<p>Тадбирни Рус филология факультети хотин-қизлар кенгаши раиси Нишонова Г. ўзининг самимий кириш сўзи билан очиб тадбир иштирокчиларини, кун тартиби ва тадбир мақсади билан таништирди. Рус филологияси факультети декани Ибрагимова Н.М барча талабаларни баҳор байрами билан табриклаб, бундай байрамлар янада кўп бўлишини, талабаларга маданий-маънавий озуқа бўлишини такидлаб уларга омад тилаб, ўзларининг ижод намуналаридан шеърлар ўқиб бердилар. “Шарқ маликаси” кўрик танлови 4 босқичдан иборат бўлиб. 1-шарт Таништирув 2-шарт эркин мавзу 3-шарт интеллектуал салоҳият 4-шарт Пазандачилик. Танловда 1 ва 2 босқич талабалари иштирок этдилар. Барча шартлардан юқори балл тўплаган 2 босқич 215 гуруҳ талабаси Холмуродова Интизор “Факультет маликаси” танлови ғолиби бўлди.</p>



15- май Оила куни

Яқинлашиб келаётган 15-май - Халқаро оила кунига бағишланган талабалар билан учрашувлар ташкиллаштириш, келажак авлодга оила муқаддас қадрият эканлигини замонавий йўсинда етказиб бериш ҳамда улар онгида оилавий маъсулият бурчини шакллантириш борасида тренинглари сони ортиб бормокда.

Университетнинг 1-сон Талабалар турар жойида барча факултет деканларининг хотин-қизлар масалалари бўйича маслаҳатчилари иштирокида 15-май- Халқаро оила куни муносабати билан қизларни мустақил оилага тайёрлашга йўналтирилган кўрик-танлов ўтказилди. Унда талабалар турар жойида истикомат қилувчи талаба-қизлар “Энг озода хона”, “Энг фаол қизлар”, “Энг саришта қизлар”, “Энг фаол китобхон”, “Энг аҳил қизлар” номинасиялари бўйича Универсиет фахрий ёрлиқлари билан тақдирландилар.





**O'ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI**  
**TARJIMONLIK FAKULTETI**  
**XOTIN-QIZLAR MASLAHAT KENGASHINING**  
**2021-2022 O'QUV YILIDA AMALGA OSHIRGAN ISHLARI BO'YICHA**

**HISOBOT**

T/r	Chora-tadbirlar nomi	Amalga oshirilgan ishlar
<b>I.ME'YORIY-HUQUQIY VA TASHKILIY ASOSLARNI TAKOMILLASHTIRISH</b>		
<b>1.</b>	<b>Birinchi kurs maktabi</b>	<p>Tarjimonlik fakulteti dekani R. Karimov talabalarni birinchi bosqichga qabul qilinganligi bilan tabrikladi va tadbirni ochib berdi.</p> <p>Eng avvalo mustaqilligimizning 30 yilligiga bag'ishlangan taqdimot bilan tanishtirib o'tildi. Unda universitet, fakultet va kafedralar, universitet Axborot markazi, u yerdagi mavjud adabiyotlar, manbalar va universitet talabalar turar joylari bilan batafsil tanishtirildi. Bundan tashqari talabalarga universitetda o'z-o'zini tutishi, odob-ahloq qoidalari, huquq va burchlari to'g'risida tushuntirishlar berildi.</p>

		<p>Joriy o‘quv yilidagi qabul qilingan yangi Qarorlar, yo‘l- yo‘riqlar, fan o‘qituvchilari, dars jarayonlari, baholash tizimi, haqida ma‘lumot berdi.</p> <p>Talabalar yuqorida keltirilgan barcha qonun- qoidalar bilan batafsil tanishdilar va o‘zlari qiziqtirgan savollarga javob oldilar..</p>
<b>2.</b>	<b>11-oktyabr- Xalqaro qizlar kun</b>	<p>BMT Bosh Assambleyasining 2011-yil 19-dekabrda qabul qilingan rezolyutsiyasiga asosan, 11-oktyabr — “Xalqaro qizlar kuni” deb e‘lon qilinganligi munosabati bilan 1- va 2- kurs talaba- qizlari ishtirokida seminar-trening bo‘lib o‘tdi. Unda psixolog X. Xidayxodjayeva Xalqaro qizlar kuni kelgusida ular munosib ish joylariga ega bo‘lishlarini ta‘minlash maqsadida, qizlarning eng muhim ehtiyojlari va imkoniyatlariga e‘tibor qaratish uchun barchani birlashtirishi, oilada zo‘ravonlik mavzusida fikr almashildi. Ushbu tadbirni o‘tkazishdan ko‘zlangan asosiy maqsad, oilada ayolga nisbatan amalga oshiriliadigan zo‘ravonliklar natijasida yuzaga keladigan nohush holatlarni oldini olish va ayollarning oilada o‘z o‘rniga ega bolishida bir turtki vazifasini bajarishda muhim rol o‘ynaydi.</p> <p>Tadbir so‘nggida talabalar o‘zlari qiziqtirgan savollariga javob olishdi. Tadbir talabalarning ma‘naviy ongining shakllanishi va yuksalishiga hissa qo‘shadigan maslahatlarga boy bo‘ldi.</p>
<b>3.</b>	<b>“Til- millat ko‘zgusi”</b>	<p>O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti Tarjimonlik fakultetida 2021- yil 15-oktabr kuni soat 13:30 da O‘zbekiston respublikasining “Davlat tili haqida”gi Qonuni qabul qilinganligining 32-yilligiga bag‘ishlab “Til – millat ko‘zgusi” mavzusida ilmiy-adabiy kecha bo‘lib o‘tdi.</p> <p>Bu kechani fakultet dekani R.Karimov ochib berdi, unda O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a‘zosi, G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot – matbaa ijodiy uyi muharriri, shoira – Go‘zal Begim va O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a‘zosi, “Jahon adabiyoti” jurnali bo‘lim mudiri, shoir Davron Rajab ishtirok etishadi. Shuningdek, O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasida dotsentlari N.Jiyanova va O.Mo‘minovalar o‘zbek tili haqidagi o‘zlarining fikrlari bilan o‘rtoqlashdilar. Ilmiy-adabiy kechada talabalarning she‘riy chiqishlari ham bo‘ldi.</p>
<b>4.</b>	<b>5 muhim tashabbus</b>	<p>Universitetimizda talabalar bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish hamda ularning iqtidorini yuzaga chiqarish maqsadida yoshlar bilan ishlash, ma‘naviyat va ma‘rifat bo‘limi hamda fakultetlar bilan hamkorlikda bir qator tadbirlar o‘tkazildi. Quyida</p>

		<p>rasm chizishga iqtidori bo'lgan talabalar tomonidan Media va kommunilasiya fakulteti tashabbusi bilan "Biz korrupsiyaga, giyohvandlikka va jinoyatchilikka qarshimiz!" shiori ostida o'tkazilgan rasmlar tanlovida talabalarimiz tomonidan chizilgan rasmlarni taqdim etamiz. Eslatib o'tamiz, ushbu tanlovda talabalarga 1 soatu 30 daqiqa vaqt berildi va shu vaqt ichida berilgan mavzu bo'yicha siz guvohi bo'layotgan rasmlarni chizishdi. G'olib va sovrindorlar 1-noyabr kuni taqdirlanadi. Mamlakatimiz rahbari tomonidan tavsiya etilgan yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish va ularni bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish bo'yicha 5 ta muhim tashabbus doirasida O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti yoshlar bilan ishlash, ma'naviyat va ma'rifat bo'limi hamda fakultetlar bilan hamkorlikda talabalar o'rtasida "Zakovat", "Tasviriy san'at" (Biz korrupsiyaga qarshimiz), "Kiber sport", "Voleybol", psixologik suhbat, ichki ishlar xodimlari bilan talabalar o'rtasida profilaktik suhbat hamda "Shaxmat-shashka bo'yicha chempionat tashkil qilindi.</p>
5.	<p><b>Yangi Darxon mahallasida Yoshlar sayli</b></p>	<p>Joriy yilning 16 fevral kuni yangi tashkil etilgan Yangi Darxon mahallasida universitet tarjimonlik fakulteti va 334-sonli maktab jamoasi hamkorligida Yoshlar Sayli tashkil etildi. Tadbir mahallaning yangi binosi maydonida bo'lib o'tdi. Unda Tarjimonlik fakultetining tyutor va talaba-yoshlari va maktab o'quvchilari tomonidan uyushtirilgan hunarmandchilik namunalari ko'rgazmasi tashkil etildi. Jumladan yosh havaskor rassomlar ijodi, chevarlik san'ati namunalari Yoshlar e'tiboriga havola etildi. Tadbirda yoshlar <b>Ikkinchi tashabbus</b> yoshlarni jismoniy chiniqtirish va sport sohasida o'z qobiliyatini namoyon qilishlari uchun zarur sharoitlar yaratib berish masalalari bo'yicha tennis sport o'yini bo'lib o'tdi.</p> <p><b>Birinchi tashabbus</b> yoshlarning musiqa, rassomlik, adabiyot, teatr, va san'atning boshqa turlariga qiziqishlarini oshirish bo'yicha rasmlar tanlovi uyishtirildi.</p> <p><b>To'rtinchi tashabbus</b> aholi, ayniqsa, yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, ular o'rtasida kitobxonlikni keng targ'ib qilish masalalari yuzasidan kitob yarmarkasi tashkil etildi.</p> <p>Bundan tashqari talaba-yoshlar va maktab o'quvchilari ishtirokida sport musobaqalari ham tashkil etildi. Tadbirda faol ishtirok etganlarga Universitet Tarjimonlik fakultetining esdalik sovg'alari taqdim etildi.</p>

<b>II.XOTIN-QIZLARNI TAZYIQ VA ZO‘RAVONLIKDAN HIMOYA QILISH</b>		
<b>6.</b>	<b>Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish</b>	<p>Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish 2019 yil 2 sentyabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti “Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonunni imzoladi. Ushbu qonun O‘zbekistonda ayollar kamsitilishi va ayollarga zo‘ravonlik ko‘rsatishning barcha shakllariga nisbatan qonuniy choralarni belgilab berdi.</p> <p>Ushbu mavzu yuzasidan O‘zbekiston Jahon Tillari Universitetida universitet talaba qizlari bilan yuridik fan;lari doktori, professor Feruza Muhiddinova o‘rtasida uchrashuv bo‘lib o‘tdi. Uchrashuvda qizlar o‘zlarini qiziqtirgan savollarga javoblar olishdi.</p>
<b>7.</b>	<b>Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish tarafdorimiz</b>	<p>Ushbu tadbirda Uchtepa tumani Ichki ishlar organlarining faoliyatini muvofiqlashtiruvchi bo‘limi xotin-qizlar masalalari bo‘yicha katta inspektorlar podpolkovnik R.A.Mirzayeva, mayor Sh.A.Abdukarimova, katta leytenant R.F.Mursalimovalar ishtirok etishdi. Tadbir davomida mutaxassislar talaba qizlarga O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 4-yanvardagi 3-sonli “Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori mazmun mohiyati haqida batafsil ma’lumot berib o‘tishdi. Shuningdek, tazyiq va zo‘ravonlikka uchragan xotin-qizlarga yordam ko‘rsatish, himoya orderi berish tartibi tushuntirib o‘tildi.</p>
<b>8.</b>	<b>Xalqaro qizlar kuniga bag‘ishlangan "oilada zo‘ravonlik" mavzusidagi psixologik trening.</b>	<p>“O‘zbekiston Raspublikasining “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi O‘RQ-562-sonli va “Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida”gi O‘RQ-561-sonli qonunlarning mazmun-mohiyatini targ‘ib qilish maqsadida “Ayollar o‘rtasida jinoyatchilik va huquqbuzarliklarning oldini olish hamda zo‘ravonlikdan jabrlanganlarning huquqlarini himoya qilish, zo‘ravonlikning oldini olish” mavzusidagi targ‘ibot tadbirida Uchtepa tuman Ichki ishlar organlari faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi Xotin-qizlar masalalari bo‘yicha katta inspektorlari katta leytenant Radmila Fargatovna Mursalimova va mayor Nilufar Zarovna Sabirova ishtirok</p>

		<p>etdilar. Ular talaba-qizlarga qonunlarning mazmun-mohiyati haqida batafsil tushuncha berdilar, xotin-qizlar ishtirokida sodir bo'lgan ayanchli taqdirlar, ular guvohi bo'lgan jinoyatlar haqida ma'lumotlarni ulashdilar.</p> <p>Shuningdek, tadbirda talaba-qizlar uchrashi mumkin bo'lgan muammolar va ularni bartaraf etish yuzasidan qiziqarli savol-javoblar bo'lib o'tdi.</p>
9	<p><b>maqsadida talaba-yoshlar o'rtasida ma'naviy-axloqiy tarbiya ishlarining o'ziga xos jihatlari kabi tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan mavzularda tushuntirish ishlarini qamrab olgan "Yoshlar tarbiyasining nozik jihatlari" mavzusida seminar-trening</b></p>	<p>Universitetda joriy yilning 9-fevral kuni O'zbekiston Respublikasi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 6-oktyabrdagi Zo'rluk ishlatishdan jabr ko'rgan xotin-qizlarni reabilitatsiya qilish va moslashtirish hamda o'z joniga qasd qilishning oldini olish borasidagi ishlarni takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risidagi 625-sonli qarori bilan tasdiqlangan chora-tadbirlar dasturining 2 va 10-bandlarida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida talaba-yoshlar o'rtasida ma'naviy-axloqiy tarbiya ishlarining o'ziga xos jihatlari kabi tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan mavzularda tushuntirish ishlarini qamrab olgan "Yoshlar tarbiyasining nozik jihatlari" mavzusida fakultet xotin-qizlar masalalari bo'yicha dekan maslahatchilari hamda t'yutorlar ishtirokida seminar-trening tadbir o'tkazildi. Ushbu davra suhbatida Respublika ma'naviyat va ma'rifat markazi "Ma'rifat" targ'ibotchilar jamiyati Xusanov Baxtiyor Qahramonovich tomonidan psixologik seminar- trening tashkil etildi.</p>
	<p><b>"Farovon oila sari" shiori ostida "Oila muqaddas mavzusida seminar-trening</b></p>	<p>13 may kuni soat Tarjimonlik fakultetida 15 may- Xalqaro oila kuni munosabati bilan "Farovon oila sari" shiori ostida "Oila- muqaddas" mavzusida universitet psixologi Z. Xayrullayeva va fakultetning xotin-qizlar masalalari bo'yicha dekan maslahatchisi A.Ma'diyeva tomonidan seminar-trening o'tkazildi. Unda talabalarga ruhiy motivasiya berish orqali yuzaga kelayotgan tashqi va ichki zo'riqishlarning oldini olish, psixolog tomonidan motivasiya bergan holda, terapiya usullaridan (qo'shiq, raqs, jismoniy tarbiya, mutolaa, yoga, sayr va hokazo)lardan foydalangan holda 2039, 2014 guruhlar ishtirokida "O'zingni tanishtir", "Men kimman", " Sehrli orolcha", "Mashina" trening mashg'ulotlari tashkil etildi.</p>
<p><b>III. TA'LIM MUASSASALARIDA XOTIN-QIZLAR BILAN ISHLASH TIZIMI</b></p>		



10.	<b>Universitet psixologi bilan tanishuv, psixologik trening</b>	<p>Universitetning tarjimonlik fakulteti dekani qabul qilingan birinchi bosqich talabalariga universitet psixologini tanishtirib seminar-trening ochib berdi. Shundan so`ng, universitet psixolog o`z so`zida Oliy ta`lim tizimi psixologi faoliyati ta`lim xizmatlari sohasiga mansub bo`lib, kadrlar tayyorlash sifati va samaradorligini oshirish, barkamol shaxsni tarbiyalash hamda talabaning har tomonlama garmonik, to`laqonli psixologik taraqqiyotini ta`minlovchi optimal shart-sharoitlarni yaratishni maqsad qilib qo`yadi deya ta`kidladi Z.T.Xayrullaeva. Seminar-treningda universitet psixologi ishtirokida adaptatsiyaga doir bir qancha mashg`ulotlar tashkillashtirildi. Treningni tashkil qilgandan maqsad birinchi bosqichga qabul qilingan talaba-yoshlarga psixologik ko`mak ko`rsatish ta`lim olish jarayonida uchraydigan psixologik muammolarni olidini olishdan iborat. Uchrashuvda universitet psixologi faoliyati, talabalarning ijtimoiy-psixologik pasportini yaratishning ahamiyati, oliy ta`lim tizimida o`qish jarayonining shaxs sifatida talaba psixologiyasiga ko`rsatadigan ta`siri to`g`risida fikr-muloxazalar bildirildi Seminar-trening davomida talaba-yoshlarni qiziqtirgan savollarga universitet psixologlari tegishli ma`lumotlarni etkazdi.</p>
11.	<b>"Xotin-qizlarning oila va jamiyatdagi ijtimoiy o`rni"</b>	<p>Joriy yilning 3-dekabr sanasida fakultetda "Xotin-qizlarning oila va jamiyatdagi ijtimoiy o`rni" mavzusida seminar-trening tadbir o`tkazildi. Universitet psixologi Z.T. Xayrullayeva ishtirokida psixologik trening bo`ldi. Psixolog fakultetda talaba-qizlarning muammolarini o`rganish, o`z-o`zlarini himoya qilish va favqulodda vaziyatlarda qanday yo`l tutish kerakligi haqida bahs- munozaraga boy semimar-trening bo`lib o`tdi. Trening davomida talaba-qizlar qiziqtirgan savollariga javob oldilar.</p>
12.	<b>Biz sog`lom turmush tarafdorimiz"</b>	<p>Joriy yilning 12 noyabr kuni "Biz sog`lom turmush tarzi tarafdorimiz" shiori ostidagi universitet xotin-qizlar sport musobaqasi bo`lib o`tdi. Unda barcha fakultetlardan saralangan professor-o`qituvchilardan tashkil etgan xotin-qizlar guruhlarini ishtirok etdilar. Tarjimonlik fakulteti professor-o`qituvchilaridan tashkil topgan guruh xotin-qizlari musobaqada faol ishtirok etdilar. Musobaqa natijasida Tarjimonlik fakulteti guruhi 2-o`rinni egalladilar.</p>
13.	<b>Universitet Talabalar turar joyiga tashrif</b>	<p>Joriy yilning 18-fevral kuni Universitetning IV-Talabalar turar joyida istiqomat qilayotgan 1- kurs talabasi Esonova Dildora bilan birga 115- xonada yashab</p>

		<p>kelayotgan xonadoshlari Maradjabova Mohira, Eshimbetova Gulirayhon, Fayzullayeva Zarinalar tomonidan yozilgan shikoyat xati yuzasidan suhbat o'tkazildi. Fakultet yoshlar bilan ishlash va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha dekan muovini S.Kodirov, xotin qizlar masalalari bo'yicha dekan maslahatchisi A.Ma'diyeva va tyutor Z. Shuhratovalar talabalar turar joyiga borib vaziyatni o'rgandilar. D. Esonova haqida xonadoshlardan uning odob-ahloq qoidalariga rioya qilmasligi, talaba-qizlarning vazifalarni o'zvaqtida bajarishiga halaqit qilayotgani haqida batafsil eshitildi. D. Esonova bilan bu haqda bafurja suhbatlashib, TTJ da o'rnatilgan tartib-qoidalar haqida batafsil tushuncha berildi. Muammo talabaning onasi bilan muhokama qilindi.</p> <p>Suhbat so'nggida o'z aybini tushungan talaba xonadoshlaridan uzr so'radi va ular bilan inoq bo'lib yashashga va'da berdi</p>
<p><b>14.</b></p>	<p><b>Universitet Talabalar turar joyida istiqomat qilayotgan talaba-qizlar bilan ishlash.</b></p>	<p>Joriy yilning 18-fevral kuni Universitetning IV-Talabalar turar joyida istiqomat qilayotgan 1- kurs talabasi Esonova Dildora bilan birga 115- xonada yashab kelayotgan xonadoshlari Maradjabova Mohira, Eshimbetova Gulirayhon, Fayzullayeva Zarinalar tomonidan yozilgan shikoyat xati yuzasidan suhbat o'tkazilgan edi. Fakultet yoshlar bilan ishlash va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha dekan muovini S.Kodirov, xotin qizlar masalalari bo'yicha dekan maslahatchisi A.Ma'diyeva va tyutor Z. Shuhratovalar talabalar turar joyiga borib vaziyatni o'rganib, talaba-qizlarga odob-ahloq qoidalari yuzasidan batafsil tushuncha berilgan edi.</p> <p>Shunga qaramay, talaba D.Esonovaning onasi 4 mart kuni qizining shikoyati va uning xonadoshlari tomonidan bildirilgan og'zaki murojaatlari yuzasidan yana bir bor targ'ibot ishlari olib borildi. TTJ mudiri ishtirokida 115-xonada istiqomat qilib kelayotgan barcha qizlar bilan muammo yuzasidan suhbat olib borildi, yanada chuqurroq o'rganildi va muammolarga oydinlik kiritildi.</p> <p>Tushuntirish ishlari olib borilgandan so'ng talaba-qizlar bundan keyon ahil va inoq yashashga so'z berdilar.</p>

<p><b>15.</b></p>	<p><b>“Biz - sog'lom turmush tarzi tarafdorimiz” mavzusida Respublika OITSGa qarshi kurash markazi bilan hamkorlikda tadbir</b></p>	<p>O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti tarjimonlik fakultetida “Biz - sog'lom turmush tarzi tarafdorimiz” mavzusini yuqori saviyada o‘tkazish uchun 2022 yilning 4 mart kunida kafedra va Respublika OITSGa qarshi kurash markazi bilan hamkorlikda tadbir o‘tkazildi.</p> <p>Tadbirni kafedra katta o'qituvchisi N.Tursunova kirish so'zi bilan boshlab, bugungi ko'tarilayotgan mavzuning mazmun-mohiyati, dolzarbligi, OIV va OITSning shaxs, davlat va jamiyat rivojlanishidagi salbiy oqibatlari, ayniqsa inson salomatligiga ko'rsatadigan ta'siri, OITSning yoshlar orasida ko'payib borayotganligi hammamizni ogohlikka da'vat etayotganligini ta'kidladi.</p> <p>Kafedra katta o'qituvchisi N.Tursunova bugungi tadbir ishtirokchilari bilan tanishtirib, so'zni mutaxassislariga berdi.</p> <p>Mutaxassis o'z so'zida OITSGa chalinayotganlar soni ortib borayotganini hisobga olib, har bir kishi bu masalada jon kuydirmog'i darkor. Buning uchun ular OITS haqidagi ma'lumotlarni bilishlarining o'zi ham katta ahamiyatga ega, ya'ni kasallikning tarixi, kelib chiqishi, sabablari, rivojlanishi, patogenezi, kasallik belgilari, davolash va uning oldini qanday olish kerakligi hamda statistik ko'rsatkichi haqida batafsil ma'lumotlar berib o'tdi.</p> <p>Asrimiz vabosi bo'lgan OITS, giyohvandlik ofatidan xalqimizni va kelajak avlodni halos etish, ularni moddiy-ma'naviy barkamollik sari yo'naltirishdek umumbashariy xayrli ishlarda barchamiz birdek faol bo'lishimiz kerak ekanligini ta'kidlab o'tdi.</p> <p>Tadbir davomida mavzuga oid taqdimotlar va videoroliklardan foydalanildi. Talabalar o'zlarini qiziqtirgan savollariga mutaxassis tomonidan to'liq va yetarlicha javoblarni oldilar. Uchrashuv juda qiziqarli va taassurotlarga boy tarzda o'tdi.</p>
<p><b>16.</b></p>	<p><b>O‘zDJTU Xotin-qizlar Maslahat kengashi raisi N.Djurayeva va barcha fakultning xotin-qizlar masalalari bo‘yicha dekan maslahatchilari 3-4-5-6 sonli talabalar turar joylariga tashrifi</b></p>	<p>Joriy yilning 31 mart kuni O‘zDJTU Xotin-qizlar Maslahat kengashi raisi N.Djurayeva va barcha fakultning xotin-qizlar masalalari bo‘yicha dekan maslahatchilari 3-4-5-6 sonli talabalar turar joylariga tashrif buyurdilar</p> <p>✓Mas‘ullar 4 soat davomida TTJlarda istiqomat qilayotgan talaba-qizlar bilan o‘zaro muomala madaniyati, Universitetning odob-ahloq bo‘yicha Nizomi asosida</p>

		<p>kiyinish madaniyati, shuningdek, Universitet talabalar joylarining ichki tartib-qoidalariga rioya etish masalalari yuzasidan davra suhbatlari tashkil qildilar.</p> <p>✓Tashrif mobaynida talabalar turar joylaridagi uchragan kamchiliklar va muammolar ustida ish olib borildi. Talaba-qizlarga uy-ro'zg'or ishlari haqida uni saranjom-sarishta tutish yo'llari haqida maslahatlar berildi. Uchragan kamchiliklarni darhol bartaraf etish choralari ko'rildi.</p> <p>Bundan tashqari yotoqxonada istiqomat qilayotgan talaba-qizlarning shikoyat va takliflari so'raldi va kamchiliklarning oldini olish va o'rinli takliflarni tatbiq qilish choralari ko'rildi.</p>
17.	<b>15-may- Xalqaro oila kuni munosabati bilan qizlarni mustaqil oilaga tayёрлашга йўналтирилган кўрик-танлов</b>	<p>Яқинлашиб келаётган 15-май - Xalqaro oila kuniга бағишланган талабалар билан учрашувлар ташкиллаштириш, келажак авлодга oila муқаддас қадрият эканлигини замонавий йўсинда етказиб бериш ҳамда улар онгида oilавий маъсулият бурчини шакллантириш борасида тренинглар сони ортиб бормоқда.</p> <p>Университетнинг 1-сон Талабалар турар жойида барча факултет деканларининг хотин-қизлар масалалари бўйича маслаҳатчилари иштирокида 15-май- Xalqaro oila kuni munosabati билан қизларни мустақил oilага тайёрлашга йўналтирилган кўрик-танлов ўтказилди. Унда талабалар турар жойида истиқомат қилувчи талаба-қизлар “Энг озода хона”, “Энг фаол қизлар”, ”Энг саришта қизлар”, “Энг фаол китобхон”, “Энг аҳил қизлар” номинасиялари бўйича Универсиет фахрий ёрлиқлари билан тақдирландилар</p>
<b>IV. OTIN-QIZLAR O'RTASIDA O'TKAZILADIGAN MA'NAVIY-MA'RIFIY, TARBIYAVIY ISHLARNI TASHKIL ETISH VA OAV YORITISH</b>		
18.	<b>Talabalar holidan xabar olish</b>	<p>2021 yilning sentyabridan boshlab har haftada bir marta Universitetning Talabalar turar joyiga talabalarning yashash sharoiti, tozalik va ularning bo'sh vaqtini qanday o'tayotganligidan xabar olish maqsadida fakultet yoshlar bilan ishlash va ma'naviyat va ma'rifat ishlari bo'yicha dekan muovini S. Qodirov bilan tashrif buyurildi. Yotoqxonа sharoitini ko'zdan kechirish jarayonida talabalar turar joyi, u yerning sharoiti va tozaligi, talabalar tartib-intizomi, yotoqxonа ichki tartib-qoidalari haqida yotoqxonа mas'ullari bilan suhbatlashildi. Xonalar tartibli, oshxonа jihozlari mavjud va ular tartibli joylashgan. Qizlarning bo'sh vaqtini unumli o'tkazish maqsadida turli</p>

		to`garaklar tashkil qilinganligi ma`lum qilindi. Suhbat davomida talaba-qizlar o`z fikrlari, takliflari bilan o`rtoqlashdilar. Talaba qizlar bilan berilgan imkoniyatlar, ulardan unumli foydalanish haqida tavsiya qilindi.
19.	<b>“Xotin-qizlar ijtimoiy faolligini oshirish – mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning muhim omili”</b>	<p>O`zbekiston davlat jahon tillari universitetida tahsil oluvchi talaba qizlar bilan “Xotin-qizlar ijtimoiy faolligini oshirish – mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning muhim omili” mavzusida ma`naviy-ma`rifiy tadbir o`tkazildi.</p> <p>Tadbirni universitet xotin-qizlar kengashi raisi N.Djurayeva ochib berdi. Ma`rifat targ`ibotchilari jamiyati a`zosi, falsafa fanlari doktori, professor J.T.Shermuhamedova o`z so`zida O`zbekistonda gender tenglik masalalari va ayrim sohalarda ayollarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish belgilanganligiga to`xtalib o`tdi. O`zbekiston xalq artisti G.Zokirova esa qizlarni mustaqil oilaga tayyorlash, oilaviy ajrimlarga sabab bo`layotgan omillar haqida o`z fikr va maslahatlarini berdi.</p>
20.	<b>“Boburnoma”nemis tilida</b>	<p>Joriy yilning 5-oktabr kuni O`zbekiston Yozuvchilar uyushmasida Germaniyada nashr etilgan “Boburnoma” asarining nemis tilidagi tarjimasida hamda “Quyoshga intilib” she`riy kitobining taqdimoti bo`lib o`tdi. “Boburnoma” tarjimoni germaniyalik olim va tarjimon Xelmut Dalovdir.</p> <p>Taqdimotda adabiy jamoatchilikka tanishtirilgan ikkinchi kitob Xelmut Dalovning “Quyoshga intilib” deb nomlangan nemis tilidagi to`plamidir. Undan muallifning O`zbekiston, uning tabiati, madaniyati, urf-odatlari va odamlariga bo`lgan ehtiromi va hurmati aks etgan she`rlari o`rin olgan. Taqdimotda ishtirok etgan tarjimonlar, yozuvchi va shoirlar, shuningdek, boburshunos olim va tadqiqotchilar, talabalar zahmatli mehnati uchun germaniyalik olimga minnatdorchilik so`zlarini bildirishdi. Tadbir so`nggida Xelmut Dalov O`zbekiston Yozuvchilar uyushmasiga faxriy a`zo etib qabul qilindi va unga uyushmaning esdalik sovg`alari topshirildi.</p>
21.	<b>O`zbekiston Qahramoni Abdulla Oripovning 80 yilligi</b>	<p>Joriy yilning 10 dekabr kuni O`zbekiston Qahramoni va xalq shoiri Abdulla Oripovning 80 yilligi keng nishonlandi. Unda O`zbekistonda madaniyant va san`at namoyondalari o`zining betakror san`at asarlari bilan ishtirok etdilar. Jumladan, O`zbekiston xalq artistlari, shoirning she`rlarini qo`shiq tarzida kuyladilar, A.Oripov</p>

		<p>maktabi o'quvchilarining ifodali she'rlari, jahon adabiyotining mashhur vakillarining shoir haqidagi iliq fikrlari barchaga manzur bo'ldi.</p> <p>Universitetimizning tarjimonlik fakulteti talabalari ham Abdulla Oripovning qalamiga mansub "O'zbekiston-vatanim manim" she'rini ingliz, nemis, franzus, arab tillarida baralla ifoda etib, tomoshabinlarni xursand qildilar.</p>
22.	<b>“Oila-muqaddas dargoh” mavzuida ma’naviy-ma’rifiy tadbir</b>	<p>Joriy o'quv yilining 16 fevral kuni O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti xotin-qizlar maslaxat kengashi raislari tomonidan talaba-yoshlar o'rtasida ota-onaga hurmat, oila muqaddasligi, hayotning qadriga yetish kabi masalalarni qamrab olgan "Oila-muqaddas dargoh" mavzuida ma'naviy-ma'rifiy tadbir o'tkazildi.</p> <p>Davra suhbatida "Ma'rifat" targ'ibotchilar jamiyati a'zosi Falsafa fanlari doktori, professor Jamila Shermumedova ishtirok etdi. Bizdagi oilaga bo'lgan mehr-muhabbat, fidoyilik, oilaning muqaddasligini his qilish, farzand tarbiyasiga bo'lgan munosabat, oilalardagi totuvlik, sabr-toqat, qanoatlilik, insof-diyonat kabi ijobiy fazilatlar haqida maruza qilindi.</p> <p>Tadbirda talaba-yoshlar bilan qizg'in suhbat o'tkazildi. qiziqtirgan savollarga mehmon batafsil tushuncha berdi. Mavzu yuzasidan paydo bo'ladigan muammolar va ularning yechimi haqida suhbat davomida savol-javob asosida fikr almashildi.</p>
23.	<b>“ Jamiyatda ayollar o’rni” mavzusi ostida seminar-trening</b>	<p>O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti Tarjimonlik fakultetida 2022- yil 4-mart kuni soat 10 00 da yuqori kurs talabalari uchun " Jamiyatda ayollar o'rni" mavzusi ostida seminar-trening bo'lib o'tdi.</p> <p>Seminar-trening fakultet xotin-qizlar masalalari bo'yicha dekan maslahatchisi A. Ma'diyeva va taniqli psixolog Xusnida Uzakova ishtirokida olib borildi. Unda psixolog X. Uzakova yuqori kurs talabalari uchun jamiyat va unda ayollarning tutgan o'rni, ularning jamiyatda faoliyat olib borishi, rahbarlik lavozimlari va unda ayollarning faol ishtiroki haqida tushuncha berildi va talabalar bilan seminar-trening sifatida olib bordi. Bundan tashqari asosan talaba-qizlarga liderlik faoliyati, ularning liderlik qobiliyati, o'z iste'dodini ko'rsata olish usullari bilan o'rtoqlashdi. Seminar-treningda barcha talabalar faol ishtirok etdilar.</p>

24.	<b>8-mart bayram munosabati bilan ma'naviy-ma'rifiy bayram tadbiri</b>	<p>O'zDJTUda 8-mart bayram munosabati bilan ma'naviy-ma'rifiy bayram tadbiri bo'lib o'tdi. Joriy yilning 5-mart sanasida O'zbekiston davlat jahon tillari universitetida Xalqaro xotin-qizlar bayrami munosabati bilan katta tadbir tashkil qilindi.</p> <p>✓Tadbirni universitet rektori o'zining bayram tabrigi bilan ochib berdi va o'z nutqida ayollarni e'zozlash va ularga ehtirom ko'rsatish sharqona qadriyat ekanligini aytib o'tdi.</p> <p>✓Tadbir davomida musiqiy kompozitsiyalar, teatrlashtirilgan sahna asarlari, turli xil raqslar, jonli ijrodagi qo'shiqlar, ko'ngilochar dasturlar, QVZ jamoasining chiqishlari namoyish etildi.</p> <p>✓Bayram dasturi ko'tarinki ruhda, yuqori kayfiyatda , taassurotlarga boy o'tdi va barcha tashrif buyuruvchilarga manzur bo'ldi.</p>
25.	<b>“Bahor gullari” talaba-qizlar o'rtasida ko'rik-tanlov</b>	<p>Tarjimonlik fakultetida "Bahor Gullari" nomli ko'rik-tanlov o'tkazildi.</p> <p>✿ Bugun Tarjimonlik fakultetining xotin-qizlar masalalari bo'yicha dekan maslahatchisi A.Ma'diyeva boshchiligida fakultet tyutorlari bilan birgalikda Navro'z bayramiga bag'ishlangan tanlov bo'lib o'tdi.</p> <p>✓ Musobaqada besh ishtirokchi besh ta shart:</p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Tanishtiruv;</li> <li>2. Mevalardan karving san'ati;</li> <li>3. Chevarlik san'ati;</li> <li>4. Muammoli vaziyatlar;</li> <li>5. Erkin mavzu</li> </ol> <p>bo'yicha bellashdilar.</p> <p>✓ Barcha shartlarda salohiyati va san'ati bilan o'zini ko'rsata olgan Aziza Shodiyeva "Bahor Malikasi" nominatsiyasiga sazovor bo'ldi.</p> <p>✓ Qolgan ishtirokchilar "Eng mahoratli qiz", "Eng iste'dodli qiz", "Eng ibratli qiz" va "Eng latofatli qiz" kabi nominatsiyalar, diplom va esdalik sovg'alari bilan taqdirlandilar.</p>
26.	<b>Tarjimonlik fakultetida Navro'z sayli</b>	<p>O'zbekiston davlat jahon tillari universitetida bahor bayrami bo'lmish Navro'z keng nishonlandi. Universitetning barcha fakultetlari joylarda bayramni birgalikda,</p>

		<p>ko‘tarinki kayfiyatda nishonlash uchun minglab talabalar, universitet professor o‘qituvchilari hamda tyutorlar tomonidan tayyorlangan mazali sumalak, bahor taomlari, mehmonlarning dilini yayratgan quvnoq kuy-qo‘shiqlar, raqslar Navro‘z bayrami yanada quvonchli o‘tishiga o‘z hissasini qo‘shdi.</p> <p>O‘zDJTU Tarjimonlik fakulteti dekani R. Karimov barchani Navro‘zi olam bilan tabriklab nutq so‘zladi. Tabrik songida sportning bir necha turlari kurash, shaxmat va shashka, stol tennisi (yakka va juftlik bahslari), voleybol (o‘g‘il bolalar va qizlar jamoalari o‘rtasida) hamda futbol bo‘yicha o‘tkazilgan Rektor kubogi musobaqalari g‘olib va sovrinli o‘rinlarni qo‘lga kiritgan jamoalar universitet rahbaryati tomonidan qimmatbaho sovg‘alar bilan taqdirlandi.</p> <p>Bayram tadbiri ko‘tarinki ruhda bo‘lib o‘tdi.Unda talabalar o‘z kuy-qo‘shiq va yallalari bilan barchani xushnud etdilar.</p>
27.	<p><b>“Balli, qizlar!” ko‘rik-tanlovining universitet bosqichi</b></p>	<p>Joriy yilning 8 aprel kuni “Balli, qizlar!” ko‘rik-tanlovining universitet bosqichi o‘tkazildi. Tadbirni universitet rektori U.Azizov kirish so‘zi bilan ochib berdi. Tanlovda fevral-mart oylarida o‘tkazilgan fakultet bosqichlari g‘olibalari, fakultet malikalari quyidagi 4 ta shart bo‘yicha bellashishdi:</p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Salomlashish va tanishtiruv</li> <li>2. Tarixda nom qoldirgan va bugungi lider ayollar haqida ma’lumot berish</li> <li>3. “Buvim kiygan liboslar” mavzusida taqdimot</li> <li>4 Erkin mavzu shular jumlasidandir.</li> </ol> <p>Tanlovda qizlar o‘zlarining bilim-salohiyat va iqtidorini har tomonlama namoyon etdilar. Bu esa albatta qizlarimizning ma’naviyatini yanada yuksalishida muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki qizlar tarbiyasi jamiyat tarbiyasi hisoblanadi. Tanlovda qizlar ishtiroki hakamlar hay’ati tomonidan “Eng iqtidorli”, “Chiroyli nutq sohibasi”, “Milliy libos targ‘ibotchisi”, “Ma’naviyat targ‘ibotchisi”, “Eng zukko” kabi nominasiyalar bilan baholandi. Jumladan, ingliz tili 2-fakulteti talabasi Shahrisonu Oqmamatova universitet malikasi nominasiyasiga sazovor bo‘ldi.</p> <p>Tarjimonlik fakulteti talabasi Aziza Shodiyeva o‘z iqtidorini namoyish etib, faxrli II o‘rinni egallab, “Eng iqtidorli” nominasiyasiga sazovor bo‘ldi.</p>
28.	<p><b>“Kitobxonlik haftaligi”</b></p>	<p>Joriy yilning 18 aprel kuni O‘zbekiston Milliy kutubxonasi va O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi tashabbusi bilan "Kitobxonlik haftaligi" tadbirining ochilish</p>



		<p>marosimi bo‘lib o‘tdi. Unda Yozuvchilar uyushmasi a‘zolari so‘zga chiqib, bugungi kun yoshlarining kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini va ularning kitobxonlikka bo‘lgan ishtiyoqini oshirish va buning uchun turli chora-tadbirlar tashkil qilinganligi haqida so‘zladilar. O‘z so‘zlarida yoshlarning ma‘naviy-ma‘rifiy, badiiy-estetik talablariga javob beradigan kitoblarni yuksak sifat bilan chop etilayotganligi, nashriyotlar va ijodkorlar faoliyatiga ko‘maklashilayotganligi, bolalarga mo‘ljallangan adabiyotlarni chop etishni qo‘llab-quvvatlanilayotganligi, mutolaa madaniyatini yuksaltirish, respublikaning olis hududlarida va yoshga doir kitobxonlik madaniyati rivojlantirilayotganligi haqida aytib o‘tdilar.</p> <p>Kunning yarmida esa mazkur kutubxonaning Majlislar zalida "Alisher Navoiy g‘azallari o‘zga tillarda" nomli davra suhbatini bo‘lib o‘tdi. Unda professor va tarjimonlar X.Raximov va N. Ilin tomonidan nemis va rus tillarida tarjima qilingan g‘azallari ishtirokchilarga havola etildi va tarjimonlar tomonidan mutafakkir A.Navoiyning g‘azallari nemis va rus tillarida o‘qib eshittirildi.</p> <p>Bundan tashqari tarjimonlar tarjimonlik san‘ati, xususan g‘azallar tarjimasi va tarjima jarayoni haqida talaba-yoshlarga batafsil so‘zlab berdilar.</p> <p>Tadbirlarda tarjimonlik fakultetining professor-o‘qituvchilari va talabalari ishtirok etdilar. Talaba-yoshlar o‘zlari qiziqtirgan savollarga javob oldilar. Tadbir maroqli o‘tdi.</p>
--	--	--



**ЎЗБЕКИСТОН ДАВЛАТ ЖАҲОН ТИЛЛАРИ  
УНИВЕРСИТЕТИ ИНГЛИЗ ФИЛОЛОГИЯ ФАКУЛЬТЕТИ ХОТИН-ҚИЗЛАР МАСЛАҲАТ  
КЕНГАШИНИНГ  
2021-2022 ЎҚУВ ЙИЛИДА АМАЛГА ОШИРГАН ИШЛАРИ БЎЙИЧА**

# ҲИСОБОТИ

Тошкент-2022

Т/р	Чора-тадбирлар номи	Амалга оширилган ишлар
<b>I.МЕЪЁРИЙ-ҲУҚУҚИЙ ВА ТАШКИЛИЙ АСОСЛАРНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ</b>		
<b>1.</b>	<b>Биринчи курс мактаби</b>	<p>Университет фаоллар залида Инглиз филология факултетига қабул қилинган биринчи курс талабалари билан ректор,деканлар учрашуви бўлиб ўтди.Бунда Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети ректори талабаларни талаба бўлганлари билан муборакбод этиб,ўқишларига омад тилади. Инглиз филология факультет декани С.А.Зияева сўз олиб,филология факультети энг яхши факультетлардан бири эканлигини таъкидлаб талабаларни яхши баҳоларга ўқиши учун барча шароитлар яратилганлигини,ҳамда ўқиш давомида фаол бўлиш кераклигини айтди.Факультет маънавий – маърифий ишлар бўйича декан муовини Ф.Султонов сўз олиб,энг аввало мустақиллигимизнинг 30 йиллигига бағишланган тақдирот билан таништириб ўтди. Унверситет, факультет ва кафедра билан таништирилди.Факультет одоб-ахлоқ кодекси ҳақида тушунча берилди. Талабаларнинг ҳуқуқлари ва мажбуриятлари тўғрисида тушунтиришлар берилди. Асосий тил фан ўқтувчилари дарс жараёнлари, баҳолаш тизими, йўқлама тартиби ҳақида маълумот берди.Ушбу йилдан бошлаб университет ўз-ўзини бошқариш тизимига ўтганлиги ва барча</p>


Ўқув ишлари кредит-модул тизимида бошқарилиши айтилди. Талабалар ўзлари қизиқтирган саволларга жавоб олди.



2. **“Ёшларни қўллаб-қувватлаш ва аҳоли саломатлигини мустаҳкамлаш” йилида гендер тенгликни таъминлаш чораларини кўриш**

“Ёшларни қўллаб-қувватлаш ва аҳоли саломатлигини мустаҳкамлаш” йилида гендер тенгликни таъминлаш борасида Филология факультетида бир қанча ишлар амалга оширилди. Шунингдек, Филология факультети олима аёллари университетнинг 2009 йилдан буён Ўзбекистон Хотин қизлар “Олима” уюшмаси билан ҳамкорликда илмий-амалий анжуман ўтказиш анъанага айланган. 2022 йил **“Ўзбекистонда интеллектуал салоҳиятни юксалтиришда хотин-қизларнинг ўрни”** мавзусида онлайн халқаро конференция ўтказилди. Анжуманда ижтимоий фанлар йўналишидаги тезисларда кўтарилган ғоялар, фикр-мулоҳазалар орқали хотин-қизларнинг ижтимоий фаоллиги ва етук салоҳияти мамлакат интеллектуал тараққиётини таъминлашда муҳим омил эканлиги, инсон капиталини яратишда олима аёлларнинг беқиёс ўрни, илм-фанни ривожлантиришда хотин-қизлар

		<p>фаоллигини ошириш омиллари, уларнинг илм-фан тараққиётига кўшаётган хиссаси ҳамда истикболли илмий-инновацион лойиҳаларни тайёрлашдаги роли, баркамол авлод тарбиясида аёл маънавиятининг аҳамияти каби долзарб масалалар, улардан келиб чиқадиган муҳим вазифалар ёшларни аجدодларга муносиб ворисийлик руҳида тарбиялаш, уларнинг маънавиятини юксалтириш, “оммавий маданият” ниқоби остидаги маънавий таҳдидларга қарши мафкуравий иммунитетини кучайтириш, аёл маънавияти ёшлар маънавиятини шакллантиришда муҳим омил эканлиги, Ўзбекистон тараққиётининг янги босқичида хотин-қизлар фаол ижтимоий куч эканлиги каби масалаларни муҳокама қилинди. Таълим сифати ошади, илмий-тадқиқот ишлари кўлами кенгайиб, янги тадқиқотлар учун муҳокама мавзулари базаси такомиллаштирилади; Ҳамкорлик натижасида ўзаро тажриба алмашилади; ОТМлар учун ўқув қўлланма ва дарсликлар тайёрланади ва янги авлод ўқув адабиётлари яратилади.</p>
5.	<p><b>Инглиз филология факультетларда “Қизларжон” клуби фаолиятини такомиллаштириш орқали қизларни ахлоқий ва эстетик маданиятини, ижтимоий-сиёсий фаоллигини ошириш, уларни касб-ҳунарга йўналтириш, мазкур клубнинг ягона режасини ишлаб чиқиш.</b></p>	<p>Инглиз Филология факультетида “Қизларжон” клуби ташкил қилиниб, бунда факультетнинг фаол илғор қизлари иш бошлади. Клубга 2130 гуруҳи фаоли Неъматуллаева Хаётхон раҳбарлик қилди. “Қизларжон” клуби фаолиятини такомиллаштириш орқали қизларни ахлоқий ва эстетик маданиятини, ижтимоий-сиёсий фаоллигини ошириш, уларни касб-ҳунарга йўналтириш, “Қизларжон” клуби фаолиятини такомиллаштириш юзасидан ишлаб чиқилган иш режаси асосида қизлар ўртасида турли мавзуларда тадбирлар ва давра суҳбатлари онлайн ва офлайн шаклда ташкил этиб келинди. Ҳамда филология факультетида “Қизларжон” клубининг телеграмм гуруҳлари ҳам шакллантирилган.</p>

		<p>Асосан клуб қизлари режа асосида фаолият олиб бориб, факультетда барча қизлар муаммолари, турли тадбирлар ташкил қилинди.</p>   
<p>6.</p>	<p><b>Зулфияхоним таваллудининг 107 йиллиги муносабати билан “Садоқат ва вафо тимсоли” мавзусида тадбир</b></p>	<p>Тадбирни ЎзДЖТУ хотин қизлар раиси Н.Джураева ўзининг самимий кириш сўзи билан очиб тадбир иштирокчиларини, кун тартиби ва тадбир мақсади билан таништирди. Н.Джураева ўз сўзида Зулфия Исроилова – таниқли ва иқтидорли ўзбек шоираси. Ёрқин рассом, оддий инсон қалбини ўткир ҳис қилган – меҳнатқаш, Шарқ аёлининг жамиятдаги тенг ҳуқуқи учун мардонавар курашган аёл. Зулфия шеърятининг нуфузи – бизнинг дабдабали мураккаб давримизнинг ҳаққоний ифодаси, ўзига хослиги, замондошларимизнинг қалби ва ҳаракатларининг ёрқин тасвиридадир, деб таъкидлаб ўтдилар. Ўзбекистон ёзувчилар</p>

уюшмаси аъзоси, Ўзбекистонда хизмат кўрсатган маданият ходими Шоира Мухтарама Улуғова ўз нутқини Зулфияхонимнинг “Баҳор келди сени сўроқлаб” номли шеърдан парча ўкиб бериш билан бошлади. Зулфияхоним таваллуди муносабати билан филология факултет талабалари томонидан "Miss Spring" кўрик танлови бўлиб ўтди. Танловнинг биринчи босқичи февралнинг сўнги кунларида ўтказилган бўлиб, ғалаба қозонган 7 нафар қиз 4 та шарт: таништирув, интеллектуал салоғият, хамир қориш, пазандачилик беллашуви бўйича ўзаро беллашув ташкиллаштирилди. Барча шартларда фаол бўлиб энг юқори баллни тўплаган Муродова Ирода "Miss Spring of English philology" номига сазовор бўлди.



Бундан ташқари филология факультетида 8-март халқаро хотин-қизлар кунига бағишлаб “Сен барибир муқаддасан аёл” деб номланган тадбир ўтказилди. Тадбир жуда кўтаринки

руҳда қувноқ чиқишлар ва турли рақслар билан бойитилди. Муқимий номли мусикали драма театри артистлари томонидан турли чиқишлар бўлди.





7.

**“Оила-муқаддас даргоҳ”  
мавзусидаги тадбир**

